



KONSEPTUAL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH ORQALI OLIY TA'LIM TALABALARI KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-NAZARIY ASOSLARI

G'ofurova Barnoxon Asadjon qizi,

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

gofurova343@gmail.com

+998916723453

ORCID: 0009-0005-8836-0952

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil Jurnal soni: 17 Maqola raqami: 50 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1400 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS konseptual fikrlash, oliy ta'lim, pedagogik nazariya, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiya, muammoli ta'lim, integratsiya, kreativ tafakkur.	Maqolada oliy ta'limda konseptual fikrlashni rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Hozirgi davrda talabalarining bilimlarni chuqur anglashi, ularni tizimli qayta ishlashi va nazariy umumlashtirishlar hosil qilishi oliy ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omilga aylangan. Mazkur maqolada konseptual fikrlashning nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari va uni shakllantirishning samarali metodik mexanizmlari yoritilgan. Kompetensiyaviy, konstruktiv, muammoli, integrativ va refleksiv yondashuvlar konseptual tafakkur rivojini ta'minlashda asosiy vosita sifatida ko'rsatib berilgan. Ta'lim jarayonida konseptual fikrlashni rivojlantirish talabani mustaqil izlanish, tahliliy fikrlash, muammoni konseptual darajada hal qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalarining konseptual fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Konseptual fikrlash shaxsning mantiqiy xulosalash, tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, nazariy bilimlarni tizimlashtirish hamda kompleks muammolar yechimiga yo'naltirilgan intellektual faoliyat turi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda konseptual fikrlashning mazmun-mohiyati, uni shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar, shuningdek, zamonaviy ta'lim yondashuvlari (kompetensiyaviy, konstruktiv, refleksiv, muammoli va integrativ) doirasida rivojlantirish mexanizmlari yoritiladi. Maqola yakunida konseptual fikrlashni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kirish. Hozirgi davrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga chuqur kirib kelishi hamda mehnat bozori talabalarining keskin o'zgarishi oliy ta'lim oldiga sifat jihatidan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislar nafaqat muayyan fan doirasidagi bilimlarni egallashi, balki ularni vaziyatga mos ravishda tahlil qilish, mazmuniy bog'liqliklarni anglash, muammo yechimiga yo'naltirilgan xulosalar chiqarish hamda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim. Shuning uchun ham bugungi ta'lim paradigmasida talabani passiv bilim oluvchidan faol va mustaqil fikrlash subyekti darajasiga ko'tarish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda talabalarining konseptual fikrlashini rivojlantirish alohida pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi. Chunki konseptual fikrlash shaxsning bilimlarni oddiy reproduktiv tarzda qayta tiklashiga emas, balki ularni chuqur anglash, tushunchalar tizimini shakllantirish, ularning o'zaro sabab-oqibatli munosabatlarini aniqlash va nazariy asoslangan umumlashmalar hosil qilish qobiliyatiga tayanuvchi intellektual faoliyat turi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu fikrlash turi, ayniqsa, murakkab axborot oqimi sharoitida zarur bo'lib, talabani tanqidiy tahlil, mantiqiy xulosalash hamda bilimlarni yangi sharoitlarga ko'chira olish (transfer) imkoniyatlarini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim jarayonida talabalarining konseptual fikrlashini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida o'quv jarayonini samarali tashkil etish, bilimlarni chuqur o'zlashtirish hamda talabani mustaqil intellektual faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq fundamental muammolardan biri sifatida qaratiladi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda konseptual fikrlashning mazmuni, uning kognitiv mohiyati, shakllanish bosqichlari va ta'limiy omillar bilan uyg'unligi turli nazariy yondashuvlar doirasida asoslab berilgan.

Avvalo, konseptual fikrlashning nazariy ildizlarini tushuntirishda L.S.Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy yondashuv muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi¹. Unga ko'ra, shaxsning tafakkuri va tushunchalar tizimi ijtimoiy tajriba, til va faoliyat jarayonida

rivojlanadi, ya'ni fikrlashning yuqori darajadagi shakllari pedagogik ta'sir va muloqot orqali tarkib topadi. Bu yondashuv konseptual fikrlashni shakllantirishda ta'lim jarayonining ijtimoiy-kognitiv tabiati hamda bilimlarning "ichkilashtirish" mexanizmlarini izlashga imkon beradi.

Konseptual fikrlashni tushuncha va kategoriyalar tizimi orqali rivojlantirish masalasi J.Bruner qarashlarida ham izchil yoritilgan². Uning fikricha, ta'lim jarayoni mazmuni shunday tuzilishi kerakki, talaba bilimlarni faqat eslab qolmasin, balki ularni struktura sifatida anglab, asosiy konseptlarni ajrata olsin. Shuningdek, Bruner o'qitishning spiral prinsipi orqali tushunchalarning bosqichma-bosqich chuqurlashib borishini ta'kidlaydi. Bu holat talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish jarayonida mazmunni konseptual mantiq asosida qayta tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Tafakkurning bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonlari bo'yicha J.Piaget izlanishlari ham konseptual fikrlashning psixologik asoslarini yoritishda muhimdir³. Piaget tafakkur taraqqiyoti shaxsning kognitiv strukturalari takomillashuvi asosida kechishini, yuqori darajadagi fikrlash esa abstrakt munosabatlarni anglash va tizimli xulosalash bilan tavsiflanishini qayd etadi. Bu yondashuv oliy ta'lim bosqichida talabalar uchun nazariy umumlashtirish va konseptual modellashirishning ustuvor vazifi ekanini asoslaydi.

Ta'lim jarayonida konseptual fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik mexanizmlarni asoslashda B.Bloomning taksonomiyasi ham muhim ilmiy-metodik manba hisoblanadi⁴. Bloomning bilish jarayonini bosqichli (bilish-tushunish-qo'llash-tahlil-sintez-baholash) ko'rinishda talqin etishi konseptual fikrlashning yuqori pog'onadagi kognitiv faoliyat sifatida shakllanishini ilmiy izlash imkonini beradi. Mazkur taksonomiya asosida qurilgan topshiriqlar talabalarining konseptual tahlil, umumlashtirish va refleksiv baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ta'lim mazmunini natijaga yo'naltirish, bilimni amaliy vaziyatlarga ko'chirish va real muammolarni hal etish qobiliyatini shakllantirishga oid yondashuvlar D.Kolbning tajribaviy ta'lim modeli bilan ham uzviy bog'liqdir⁵. Ushbu modelda talaba bilimi

¹ Vygotskiy, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 p.

² Bruner, J.S. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. 97 p.

³ Piaget, J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge & Kegan Paul, 1950. 182 p.

⁴ Bloom, B.S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. New York: David McKay Company, 1956. 207 p.

⁵ Kolb, D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. 256 p.

tajriba, kuzatuv, tushuntirish va amaliy sinov jarayonlari orqali shakllanadi. Natijada nazariy bilimlar konseptual tizimga aylanib, talabani fikrlash jarayonida faol qo'llanadigan intellektual resurs sifatida mustahkamlanadi.

Konseptual fikrlashning rivojida ijtimoiy ta'sir va hamkorlik muhimligini asoslashda A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi alohida ahamiyatga ega⁶. Bandura shaxsning bilimi va xulqi ko'pincha kuzatish, taqlid va model orqali o'zgarishini ta'kidlab, o'quv muhitining motivatsion omillari va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini asoslaydi. Bu jihat ta'lim jarayonida talabani faolligini oshirish, o'z fikrlashini nazorat qilish hamda refleksiv tahlil ko'nikmalarini shakllantirish konseptual tafakkurning muhim shartlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda ta'lim samaradorligi va fikrlash faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni kompleks tahlil qilish bo'yicha J.Hattie olib borgan tadqiqotlar ham dolzarbdir⁷. Uning yondashuvida ta'lim natijadorligiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida o'quv jarayonining ochiqligi, fikr-mulohaza (feedback)ning aniqligi, talabani o'zlashtirish holatini kuzatib borish va refleksiv baholash tizimi ko'rsatib beriladi. Mazkur konsepsiya konseptual fikrlashni rivojlantirishda baholash va fikr-mulohaza mexanizmlarining ilmiy-metodik ahamiyatini asoslaydi. Shuningdek, ta'lim jarayonida fikrlash strategiyalarini shakllantirish masalalari bo'yicha R.Marzano tomonidan ilgari surilgan yondashuv ham e'tiborga molik⁸. U o'quv jarayonida bilimlarni qayta ishlash, ularni strukturaviy shaklga keltirish, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va mustaqil qaror qabul qilishni faollashtiruvchi metodlar tizimini asoslaydi. Bu yondashuv konseptual fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlar, muammoli savollar va tahliliy topshiriqlarning pedagogik samaradorligini izohlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, konseptual fikrlash talabani bilimlarni tizimli anglash, tushunchalararo munosabatlarni ko'ra olish, ilmiy umumlashtirish va refleksiv baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini qamrab oladi. Shu sababli, oliy ta'lim jarayonida konseptual fikrlashni rivojlantirish masalasi pedagogik nazariyalarning turli yo'nalishlari bilan uyg'unlashgan holda, metodik jihatdan puxta asoslangan ta'lim muhitini talab qiladi. Aynan mana shu ilmiy yondashuvlar konseptual fikrlashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini belgilashda metodologik tayanch sifatida xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur ishning metodologik asosi zamonaviy pedagogik va psixologik nazariyalarga tayangan holda konseptual fikrlashni rivojlantirish jarayonini tizimli yondashuv asosida tahlil qilishdan iborat. Metodologiyada kompetensiyaviy, konstruktiv, muammoli va refleksiv yondashuvlar o'zaro uyg'unlikda qo'llanildi, chunki ushbu yondashuvlar talabani bilimlarni faol o'zlashtirishi, tushunchalararo mantiqiy bog'lanishlarni anglash va nazariy umumlashtirishlar hosil qilish imkonini beradi. Ishda tahliliy metod orqali falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar o'rganildi hamda konseptual fikrlashga oid ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Taqqoslash metodi yordamida turli nazariy yondashuvlarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlanib, ularning ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari baholandi. Mantiqiy umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida konseptual fikrlashning mazmuniy tarkibi, asosiy belgilari va rivojlantirish omillari aniqlab berildi. Shuningdek, pedagogik tahlil metodi orqali oliy ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan o'qitish metodlari, interfaol texnologiyalar va refleksiv mexanizmlarning konseptual fikrlashni shakllantirishdagi o'rni asoslab berildi. Ushbu metodologik yondashuvlar konseptual fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni ilmiy asosda yoritish va ularning ta'lim amaliyotidagi ahamiyatini ochib berishga imkon yaratdi.

Natijalar. Konseptual fikrlashni rivojlantirish masalasi oliy ta'lim tizimining modernizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari hamda didaktik ta'minotning yangicha yondashuvlar asosida tashkil etilishini taqozo etadi. Zero, zamonaviy sharoitda oliy ta'lim jarayoni faqat bilimlarni uzatish vazifasi bilan chegaralanmay, balki talabalarning bilish faolligini rag'batlantirish, mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash hamda refleksiv tahlilga asoslangan intellektual muhitni shakllantirishni talab qiladi. Shunday rivojlantiruvchi ta'lim muhitida talaba bilimlarni tizimlashtirish, tushunchalararo mantiqiy bog'liqlikni anglash, nazariy umumlashtirmalar

hosil qilish, muammoga turli pozitsiyalardan yondashish hamda ilmiy asoslangan xulosalarga kelish ko'nikmalarini egallaydi.

Hozirgi paytda pedagogik nazariya va amaliyotda konseptual fikrlashni rivojlantirish muammoli kompetensiyaviy yondashuv, konstruktiv ta'lim konsepsiyasi, muammoli o'qitish, integrativ yondashuv hamda refleksiv texnologiyalar kabi ilmiy yo'nalishlar doirasida izchil o'rganilmoqda. Biroq, oliy ta'lim jarayonida konseptual fikrlashni shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini kompleks tahlil qilish, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asoslash va amaliy mexanizmlarini aniqlashtirishga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Shu ma'noda, talabalarning konseptual tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalar va pedagogik yondashuvlarni tizimli ravishda belgilash oliy ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi⁹.

Konseptual fikrlash pedagogik nazariya nuqtayi nazaridan shaxsning bilimlarni chuqur anglash, ularni tizimli qayta ishlash, tushunchalar o'rntasidagi ichki mantiqiy munosabatlarni aniqlash hamda mazkur munosabatlar asosida konseptual model yaratishga yo'naltirilgan tafakkur turi sifatida talqin etiladi. Ushbu fikrlash turi talabani bilish faoliyatida nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni qayta tuzish, umumlashtirish, mantiqiy toifalarga ajratish va nazariy xulosalar bilan boyitish jarayonini ham ifodalaydi.

Konseptual fikrlashning pedagogik ahamiyati shundaki, u bilimlarning oddiy yig'indisi emas, balki ularni mazmunan birlashtiruvchi, ichki tuzilmaga ega bo'lgan, strukturaviy tizim sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, konseptual fikrlash oliy ta'limda talabani kasbiy-intellektual rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar va pedagogik tajriba tahliliga ko'ra konseptual fikrlash quyidagi sifat ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

Tizimlilik bilimlar o'rntasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'ra olish va ularni yaxlit tizimga keltirish qobiliyati;

Mantiqiylik dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish, sabab-oqibat aloqlarini aniqlash;

Analitik-sintez muammoni tarkibiy qismlarga ajratgan holda tahlil qilish va umumlashtiruvchi xulosaga kelish;

Transferlilik o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni yangi vaziyatlarda amaliy qo'llay olish;

Refleksivlik o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish, baholash va uni takomillashtirishga intilish.

Shu jihatdan qaranganda, konseptual fikrlash kompetensiyaviy ta'limning nazariy poydevori bo'lib, talabani kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirish, mustaqil fikr yuritish va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Konseptual fikrlashning shakllanishi va rivojlanishi tabiiy tarzda kechadigan oddiy jarayon emas, balki maqsadli va tizimli tashkil etilgan pedagogik faoliyat mahsuli hisoblanadi. Oliy ta'lim jarayonida mazkur kompetensiyani rivojlantirish samarasi bevosita o'qitish mazmuni, metodlari, o'quv topshiriqlarining xarakteri hamda ta'lim muhiti sifatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun konseptual fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

Oliy ta'limda o'quv materialining konseptual asosga ega bo'lishi ya'ni bilimlar tizimida asosiy g'oya, nazariy tushuncha, ilmiy qonuniyat va tayanch kategoriyalarni ajratib berish muhim shart hisoblanadi. Agar material faqat fakt va ma'lumotlar ko'rinishida berilsa, u talabani xotirasida fragmentar saqlanib qoladi. Aksincha, mazmun konseptual tuzilishga ega bo'lsa, talaba uni tizimli ravishda anglaydi, sabab-oqibatli munosabatlarni ko'ra oladi va ilmiy umumlashtirmalar keladi.

Konseptual fikrlashni shakllantirishda o'qitish metodlari talabani bilish faolligini faollashtiruvchi, muammoli vaziyat yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bunda muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, debat, klaster, konsept xarita, "aqliy hujum" hamda refleksiv tahlil usullari samarali natija beradi. Ushbu metodlar talabani faqat tayyor bilimni qabul qilishiga emas, balki uni qayta ishlashiga, baholashiga va yangi fikrlar ishlab chiqishiga turtki bo'ladi¹⁰.

Konseptual fikrlashni rivojlantirishning zarur sharti talabani mustaqil izlanish faoliyatini tashkil etishdir. Chunki konseptlar bilan ishlash, ularni umumlashtirish, tasniflash, mantiqiy xulosalar chiqarish mustaqil fikr jarayonini talab qiladi. Shu bois oliy ta'lim jarayonida

⁶ Bandura, A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. 247 p.

⁷ Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009. 392 p.

⁸ Marzano, R.J., Pickering, D.J., Pollock, J.E. Classroom Instruction That Works: Research-Based Strategies for Increasing Student Achievement. Alexandria, VA: ASCD, 2001. 178 p.

⁹ Bloom, B.S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. New York: David McKay Company, 1956. 207 p.

¹⁰ Piaget, J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge & Kegan Paul, 1950. 182 p.

talabaniy ta'lim subyekti sifatida faolligini oshirish, mustaqil ishlarning mazmunini ilmiy-tahliliy xarakterda loyihalash muhim pedagogik omil sanaladi.

Konseptual tafakkur rivojida refleksiya va metakognitiv nazorat alohida o'rin egallaydi. Talaba o'z fikrlash jarayonini tahlil qila olsa, xatolar sababini aniqlasa, fikr strategiyasini ongli tarzda o'zgartira olsa, uning konseptual fikrlash darajasi ortadi. Shu sababli oliy ta'limda refleksiya elementlarini (o'z-o'zini baholash, tahliliy esse, fikrlar kundaligi, portfolio va boshqalar) didaktik jarayon tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Konseptual fikrlashni rivojlantirish samaradorligi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi bilan belgilanadi. Mazkur masala doirasida quyidagi yondashuvlar metodologik asos sifatida xizmat qiladi:

Kompetensiyaviy yondashuvda talaba shaxsining bilim, ko'nikma va malakalari integratsiyalashgan holda namoyon bo'ladi. Konseptual fikrlash aynan shu integratsiya jarayonida o'z samarasini ko'rsatadi: talaba nazariy bilimlarni amaliy vaziyatga moslashtira oladi, muammoni konseptual tahlil qiladi va yechim variantlarini asoslaydi.

Konstruktiv ta'lim paradigmasida bilimlar o'qituvchi tomonidan tayyor holda berilmaydi, balki talaba tomonidan faol "quriladi". Bunda talaba tushunchalarning mazmunini mustaqil izohlaydi, ularni taqqoslaydi, tizimlashtiradi va yangi ilmiy tasavvurlar shakllantiradi. Mazkur jarayon konseptual modellashirishni kuchaytirib, tafakkurning yuqori darajali strukturalarini rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim konseptual fikrlashni rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki muammoli vaziyat talabaniy aqliy faolligini oshiradi, uni tahlil, faraz qilish, dalillash, xulosa chiqarishga undaydi. Natijada talaba muammoning mohiyatini konseptual darajada anglab, nazariy asoslangan yechimlarni ishlab chiqishga intiladi.

Integrativ yondashuv fanlararo aloqadorlikni ta'minlash orqali konseptlarni chuqur anglash imkonini yaratadi. Talaba bir fan doirasidagi tushunchalarni boshqa fan kontekstida ham ko'ra olganda, uning konseptual tafakkur ko'lamini kengayadi, tizimli tahlil ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bu esa oliy ta'limda nazariy bilimlarning amaliy transferiga xizmat qiladi.

Refleksiv yondashuv konseptual fikrlashni rivojlantirishda o'z fikrlash jarayonini anglash va baholashni markazga qo'yadi. Talaba o'z bilimi va fikr yuritish strategiyasini tahlil qilib, ularni takomillashtirishga qaratilgan ongli harakatlarni amalga oshiradi. Bu jarayon talabaniy tanqidiy qarashlarini rivojlantirib, ilmiy fikrlash madaniyatini shakllantiradi.

Oliy ta'lim jarayonida konseptual fikrlashni rivojlantirish muayyan didaktik mexanizmlar asosida tashkil etilishi lozim. Ushbu mexanizmlar ta'lim jarayonini reproduktiv faoliyatdan produktiv va kreativ fikrlash bosqichiga olib chiqadi. Xususan, quyidagi metodik mexanizmlar samarali hisoblanadi:

Konsept xaritalar asosida tushunchalar va kategoriyalar o'rtasidagi aloqalarni vizual modellashtirish;

Ilmiy muammolarni qo'yish va yechish orqali nazariy fikrlashni faollashtirish;

Muammoli savollar tizimi (masalan, "nima uchun?", "qanday?", "qaysi shartlarda?") orqali mantiqiy zanjirlarni shakllantirish;

Loyiha faoliyati orqali nazariy g'oyalarni amaliy modelga aylantirish hamda tizimli fikrlashni kuchaytirish;

Keys tahlili yordamida real vaziyatlardan konseptual xulosalar chiqarish va ilmiy dalillash ko'nikmalarini rivojlantirish;

Interfaol refleksiya (portfolio, esse, tahliliy yozuvlar, o'z-o'zini baholash varaqalari) orqali bilish jarayonini ongli tahlil qilish.

Mazkur mexanizmlarning ta'lim jarayonida muntazam qo'llanilishi natijasida talabada konseptual fikrlash bilan bog'liq kognitiv ko'nikmalar, metodologik savodxonlik hamda ilmiy tafakkur madaniyati izchil shakllanadi.

Muhokama. Oliy ta'lim jarayonida konseptual fikrlashni rivojlantirish masalasi ta'lim mazmuni va o'qitish metodlarining sifat jihatidan yangilanishi bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 p.
2. Bruner, J.S. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. 97 p.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy reproduktiv ta'lim yondashuvi talabaniy bilimlarni asosan eslab qolishiga xizmat qilsa, konseptual fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim modeli bilimlarni tizimli anglash, tushunchalararo mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va nazariy umumlashtirishlar hosil qilish imkonini kengaytiradi. Shu sababli oliy ta'limda fikrlashning yuqori darajalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Nazariy manbalar va pedagogik amaliyotni tahlil qilish natijalari konseptual fikrlashning shakllanishi talabaniy bilish faolligi, mustaqil izlanishlari va refleksiv tahliliga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, tahliliy savollar qo'yish, fanlararo integratsiyaga asoslangan topshiriqlardan foydalanish talabaniy faqat tayyor bilimni qabul qilishini emas, balki uni qayta ishlashi, baholashi va yangi bilim konstruksiyalarini yaratishini ta'minlaydi. Bu holat talabaniy konseptual tafakkuri barqaror va ongli tarzda rivojlanishiga zamin yaratadi.

Konseptual fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati alohida e'tiborga loyiq. Keys-stadi, loyiha metodi, munozara va konsept xaritalar bilan ishlash talabaniy tushunchalarni vizual va mantiqiy jihatdan bog'lashiga, muammoni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqishiga imkon beradi. Bunday faoliyat shakllari bilimlarning fragmentar emas, balki yaxlit va tizimli ko'rinishda shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada talaba o'z fikrini dalillash, asoslash va ilmiy mantiqqa tayanib xulosa chiqarish ko'nikmalarini egallaydi.

Shuningdek, refleksiya va metakognitiv nazorat mexanizmlarining ta'lim jarayoniga kiritilishi konseptual fikrlashni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. O'z fikrlash jarayonini tahlil qilish, xatolarni anglash va ularni tuzatishga intilish talabaniy intellektual mustaqilligini oshiradi. Bu esa bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi bilan birga, ularni yangi vaziyatlarga moslashtirish va transfer qilish imkoniyatini ham kengaytiradi.

Muhokama jarayonida aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iboratki, konseptual fikrlashni rivojlantirish yagona metod yoki texnologiya bilan cheklanmaydi. U o'quv materialining konseptual asosda tuzilishi, o'qitish metodlarining muammoli va interfaol xarakterga ega bo'lishi, baholash tizimining refleksiv yondashuvga asoslanishi hamda talabaniy mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi muhit bilan uyg'un holda amalga oshirilgandagina samarali natija beradi.

Umuman olganda, konseptual fikrlashni rivojlantirish oliy ta'limning strategik vazifalaridan biri bo'lib, u talabaniy kasbiy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va raqobatbardosh mutaxassis sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta'lim jarayonini konseptual fikrlashga yo'naltirish nafaqat metodik ehtiyoj, balki zamonaviy oliy ta'limning muhim pedagogik talabi sifatida qaralishi lozim.

Xulosa. Oliy ta'limda konseptual fikrlashni rivojlantirish o'quv jarayonining mazmuni va metodikasini yangilash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'limda muammoli vaziyatlar va integrativ topshiriqlar ulushini oshirish, shuningdek, refleksiya va metakognitiv nazoratga asoslangan baholash tizimini takomillashtirish orqali samarali amalga oshiriladi. Shu bois mazkur yo'nalishdagi ilmiy-nazariy izlanishlar oliy ta'lim sifatini oshirish, talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'limda konseptual fikrlashni rivojlantirish o'quv jarayonining mazmuni va metodikasini yangilash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, muammoli vaziyatlar va integrativ topshiriqlar ulushini oshirish, shuningdek, refleksiya va metakognitiv nazoratga asoslangan baholash tizimini takomillashtirish orqali samarali amalga oshiriladi. Konseptual fikrlash talabaniy bilimlarni tizimli anglash, tushunchalararo munosabatlarni ko'ra olish, ilmiy umumlashtirish va refleksiv baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, konseptual fikrlashni rivojlantirish oliy ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash jarayonida muhim pedagogik omil sifatida e'tiborga loyiqdir.

5. Kolb, D.A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. 256 p.

6. Bandura, A. *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. 247 p.

7. Hattie, J. *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. London: Routledge, 2009. 392 p.

8. Marzano, R.J., Pickering, D.J., Pollock, J.E. *Classroom Instruction That Works: Research-Based Strategies for Increasing Student Achievement*. Alexandria, VA: ASCD, 2001. 178 p.